
**YANGI O'ZBEKISTON IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY
HAYOTIDAGI RO'Y BERAYOTGAN O'ZGARISHLARNING XALQARO
REYTING VA INDEKSLARDA AKS ETISHI.**

Arabboyeva Nozima Fahriddin qizi.

*Namangan davlat pedagogika instituti. Texnologik ta'lif yo'nalishi. TXT Bu 24
guruhi talabasi*

Ilmiy rahbar: Tillayev Bobomurod Abduvahhobovich

Annotatsiya, Ushbu maqola 2017–2024-yillarda Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi islohotlari qanday xalqaro reyting va indekslarda namoyon bo'layotganini tahlil qiladi. Tadqiqotda o'nlab mamlakatni qamrab oluvchi yettita asosiy indikator: *Doing Business* (*Ease of Doing Business*), *Inson rivojlanishi indeksi* (*HDI*), *Global innovatsiya indeksi* (*GII*), *Iqtisodiy erkinlik indeksi*, *Matbuot erkinligi indeksi*, *Korrupsiya qabul qilinish indeksi* (*CPI*) hamda *Ayollar, Biznes va Qonun indeksi* (*WBL*) o'r ganildi. Har bir indeks bo'yicha so'nggi o'zgarishlar va O'zbekistonning pozitsiyasi keltirilib, hukumat siyosatlari, madaniy modernizatsiya va ijtimoiy islohotlar uning reytingiga qanday ta'sir qilgani tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Yangi O'zbekistonning xalqaro maydondag'i obro'sini oshirish yo'lida qo'yilgan strategik vazifalarning samaradorligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, xalqaro indekslar, biznes yuritish, inson rivojlanishi, innovatsiya, matbuot erkinligi, korrupsiya, ayollar huquqlari.

Abstract, This article analyzes how the socio-economic and cultural reforms in New Uzbekistan from 2017 to 2024 have been reflected in international ratings and indices. The study focuses on seven major indicators covering dozens of countries: *Doing Business* (*Ease of Doing Business*), *Human Development Index* (*HDI*), *Global Innovation Index* (*GII*), *Index of Economic Freedom*, *Press Freedom Index*, *Corruption Perceptions Index* (*CPI*), and *Women, Business and the Law Index* (*WBL*). The article examines the latest changes in each index and Uzbekistan's position, evaluating how government policies, cultural modernization, and social reforms have influenced these rankings. The findings highlight the effectiveness of strategic initiatives aimed at enhancing New Uzbekistan's international reputation.

Keywords: *New Uzbekistan, global indexes, business, development, innovation, press freedom, corruption, women's rights.*

Аннотация. В данной статье анализируются, как социально-экономические и культурные реформы в Новой Узбекистане в период с 2017 по 2024 годы отражаются в международных рейтингах и индексах. Исследование охватывает семь ключевых индикаторов, включающих десятки стран: *Ведение бизнеса (Ease of Doing Business)*, Индекс человеческого развития (*HDI*), Глобальный индекс инноваций (*GII*), Индекс экономической свободы, Индекс свободы прессы, Индекс восприятия коррупции (*CPI*) и Индекс «Женщины, бизнес и закон» (*WBL*). Для каждого индекса представлены последние изменения и позиция Узбекистана, а также проанализировано, как государственная политика, культурная модернизация и социальные реформы повлияли на эти рейтинги. Результаты исследования демонстрируют эффективность стратегических задач, направленных на повышение авторитета Новой Узбекистана на международной арене.

Ключевые слова: Новая Узбекистан, международные индексы, бизнес, развитие, инновации, свобода прессы, коррупция, права женщин.

Kirish

O'zbekiston Respublikasida 2016-yildan boshlab amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasini vujudga keltirdi. Mehnat migratsiyasini tartibga solish, tashqi investitsiyalarni jalb etish, zamonaviy infratuzilma qurish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, huquqiy islohotlar – bularning barchasi mamlakatni xalqaro maydonda obro'sini mustahkamlash va turli indikatorlarda yuqori pozitsiyalarga ko'tarilishiga zamin yaratdi.

Xalqaro reyting va indekslar mamlakat siyosati, iqtisodiyoti, jamiyat va madaniy hayoti samarasini solishtiriladigan umumiy "termo-metr" vazifasini bajaradi. Ular hukumatlar tomonidan qabul qilingan islohotlar natijasini obyektiv baholashga, zaif tomonlarni aniqlashga va kelajakdag'i yo'l xaritasini chizishga yordam beradi. Shu bois, O'zbekiston amalda erishgan natijalarni Doing Business, HDI, GII, Economic Freedom, Press Freedom, CPI va WBL kabi yetakchi indekslar orqali tahlil qilish bugungi kunda nihoyatda muhim. Ushbu maqolaning maqsadi "Yangi O'zbekiston"

konsepsiyanini xalqaro reyting va indekslar doirasida batafsil tahlil qilish, islohotlarning qay darajada ijobiliy natija berayotganini ko'rsatish, hamda mavjud muammolar va takliflarni belgilashdir.

Metodologiya

Indekslar tanlovi. Tadqiqotda xalqaro miqyosda tan olingan, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish ko'rsatkichlarini keng qamrab oluvchi yettita asosiy reyting tanlab olindi. Ushbu indekslar Yangi O'zbekistonning islohotlarini xalqaro mezonlar asosida baholash imkonini beradi:

- Ease of Doing Business – biznes yuritish qulayligi (Jahon banki)
- Human Development Index (HDI) – inson taraqqiyoti indeksi (BMT Taraqqiyot Dasturi)
- Global Innovation Index (GII) – global innovatsiyalar indeksi (WIPO)
- Index of Economic Freedom – iqtisodiy erkinlik indeksi (The Heritage Foundation)
- World Press Freedom Index – matbuot erkinligi indeksi (Reporters Without Borders)
- Corruption Perceptions Index (CPI) – korrupsiya darajasi haqidagi tasavvurlar indeksi (Transparency International)
- Women, Business and the Law Index (WBL) – ayollar huquqlari va gender tengligi indeksi (Jahon banki)

Bu indekslar tanlanishining sababi shundaki, ular nafaqat raqamli ko'rsatkichlarni taqdim etadi, balki davlat siyosatining turli yo'nalishlarini baholash imkonini beradi.

Ma'lumotlar manbalari

Ushbu ilmiy ishda tahlilning aniqligi va ishonchlilagini ta'minlash maqsadida faqat rasmiy va ishonchli ma'lumotlar manbalaridan foydalandim. Jumladan, har bir ko'rsatkich bo'yicha ularning rasmiy veb-saytlari, yillik hisobotlari, xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, BMT Taraqqiyot dasturi – UNDP, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti – WIPO va boshqalar) tomonidan e'lon qilingan ochiq statistik ma'lumotlardan keng foydalanildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hukumati, tegishli vazirlik va idoralarning rasmiy statistik axborotlari, mustaqil tahlil markazlari hamda ommaviy axborot vositalarida chop etilgan maqolalar tahlil qilindi. Maqola mazmunini boyitish va mavzuni chuqurroq yoritish uchun mutaxassislar fikrlari hamda ilgari e'lon qilingan ilmiy ishlanmalar ham o'rGANildi. Ma'lumotlar

tanlanayotganda ularning haqqoniyligi, yangiligi va rasmiyligi asosiy mezon sifatida belgilandi.

Indikatorlar bo'yicha Yangi O'zbekiston reytingi va tahlili

Indikator	So'nggi reyting	Yutuqlar va o'sishlar	Muammolar va e'tibor qaratiladigan sohalar
Ease of Doing Business	69	Ro'yxatga olish jarayoni elektron shaklda soddalashtirildi	Ilmiy tadqiqotlar sust, investitsiya va boshqaruv tizimlari takomillashtirilishi kerak
Human Development Index	106	Yuqori rivojlangan davlatlar guruhiga kiritildi	Huquqiy islohotlar va qonunchilik tizimi e'tibor talab qiladi
Global Innovation Index	71	Innovatsion rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga kirdi	Innovatsion sohada diversifikatsiya, inson huquqlari va ochiqlik muhim
Index of Economic Freedom	100	Xususiylashti rish va liberallashtirish choralari ko'rilmoxda	Diversifikatsiyal ash va qonunchilik mustahkamlanishi kerak
World Press Freedom Index	148	Mustaqil ommaviy axborot vositalari faoliyati kuchaymoqda	Matbuot erkinligi past, soha organlarining faoliyati kuchaytirilishi lozim

Corruption Perceptions Index	121	Mustaqil monitoring tizimi yo‘lga qo‘yilgan	Qonunlarning ijrosini ta’minlash va nazorat mexanizmini kuchaytirish zarur
Women, Business and the Law	82.5 (Top Improver)	Eng tez rivojlanayotgan 5 davlat qatorida	Qabul qilingan qonunlar to‘liq amalga oshirilmagan

Natijalar va Tahlil

Ease of Doing Business-(Biznes yuritish qulayligi).

World Bank’ning 2024-yilgi Doing Business reytingida O‘zbekiston 190 mamlakat ichida 69-o‘rinni egalladi . Bu ko‘rsatkich 2016-yildagi 128-o‘rindan sezilarli darajada yuqorilab, O‘zbekiston biznes yuritishning soddaligi bo‘yicha MDH davlatlari orasida yetakchi pozitsiyaga yaqinlashmoqda.Yuqoriga siljish omillari: kompaniyalarini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonini tezlashtirish, soliq va bojxona t artiblarini soddalashtirish, elektron boshqaruv tizimlarini joriy etish. E’tibor qaratilishi zarur jihatlar: xususiy lashtirish tartibi, kredit olish bo‘yicha shaffoflik, halqaro moliya bozorlari bilan integratsiya [⁶³].

Human Development Index-(nson taraqqiyoti indeksi) UNDP hisobotiga ko‘ra, 2022-yilda O‘zbekiston 106-o‘rinni egalladi va yuqori rivojlangan mamlakatlar guruhiga kirdi [⁶⁴]. 2010-yilgi 112-o‘rindan bugungi 106-o‘ringa ko‘tarilish demografik, ta’lim va daromad ko‘rsatkichlarining yaxshilanganidan dalolatdir.

- ✓ Ta’lim: o‘rtacha ta’lim yillari (12,0 yil) jahon o‘rtachasiga yaqinlashdi.
- ✓ Sog‘liqni saqlash: umr ko‘rish davomiyligi 71 yilga ko‘tarildi.
- ✓ Daromad: GNI per capita oshib, jamiyatdagi turmush darajasi yaxshilandi [⁶⁵].

Global Innovation Index, WIPO Global Innovation Index (Global innovatsiyalar indeksi) 2024 hisobotida O‘zbekiston 71-o‘rinni band etdi [3]. Innovatsiya salohiyatini baholovchi ko‘rsatkichlar sezilarli darajada, xususan, ilmiy-texnik tadqiqotlar, patentlar va akademik nashrlar soni ortdi.

⁶³⁶⁴⁶⁵

Kuchli tomonlar: ilmiy tadqiqot infratuzilmasi kengaydi, oliv ta'lim muassasalari xalqaro hamkorlikka ochildi.

Kamchiliklar: xususiy sektor innovatsion salohiyatni to'liq ishga solmayapti, startap ekotizimi rivojlanishi uchun qo'shimcha rag'batlar zarur [⁶⁶].

Index of Economic Freedom (Iqtisodiy erkinlik indeksi)

Heritage Foundation'ning 2025-yilgi hisobotida O'zbekiston iqtisodiy erkinlik bo'yicha 100-o'rinni egalladi va "asosiy unfree" (mostly unfree) kategoriyasidan "unfree" ko'rsatkichga yaqinlashmoqda [⁶⁷]. 2024-yilga nisbatan umumiyligi ball 58 ga ko'tarildi, bu esa O'zbekiston iqtisodiy erkinlikni yaxshilashda muhim bosqich ekanini ko'rsatadi.

Pozitiv omillar: xususiylashtirish, moliyaviy sektorda liberallashtirish, bandlik siyosati.

E'tibor qaratilishi zarur: soliqlar yukini kamaytirish, huquqiy barqarorlikni mustahkamlash, chet el investitsiyalarini himoya qilish.

World Press Freedom Index. Reporters Without Borders (Jahon matbuot erkinligi indeksi). 2024 yilgi reytingida O'zbekiston 148-o'rinni egalladi, oldingi yilga nisbatan 11 pog'ona pasaydi va "juda jiddiy" darajadagi matbuot chekllovlar guruhi maqomi saqlanmoqda[⁶⁸].

Sabablar: mustaqil OAVlarga bosim, onlayn nazorat va senzura, jurnalistlarning erkin faoliyatiga qarshi iqtisodiy va huquqiy to'siqlar.

Takliflar: ommaviy axborot vositalarida diversifikatsiya, qonunchilik islohotlari hamda inson huquqlari kafolatlarini kuchaytirish.

Corruption Perceptions Index, Transparency International (Korruptsiya darajasi bo'yicha indeks) 2024 CPI hisobotida O'zbekiston 121-o'rinni egalladi va 32 ball to'pladi, bu ko'rsatkich oxirgi yillarda deyarli o'zgarmadi .

Ijobiy tomonlar: korrupsiyaga qarshi muayyan qonunlar kuchga kirdi, raqamlashtirish orqali byurokratik nazorat kamaytirildi. Zarur choralar: huquqiy muhofaza organlari mustaqilligini oshirish, ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish [⁶⁹].

Women, Business and the Law (Ayollar, biznes va qonunchilik)

⁶⁶⁶⁷⁶⁸⁶⁹

World Bank'ning 2024 WBL hisobotida O'zbekiston eng ko'p 5 ta ilg'or o'zgarish amalga oshirgan mamlakatlar qatoriga kirdi va balli 82,5 ga yetdi [70]. Mehnat qonunchiligidagi gender tengligini mustahkamlovchi islohotlar, oilaviy zo'ravonlikka qarshi choralar qabul qilindi. Muhim islohotlar: teng haq to'lash majburiyati, xatarli ish turlarida ayollarga taqiqlar olib tashlandi, oiladagi zo'ravonlikka chora ko'rildi.

Natija: gender tengligi indeksida Markaziy Osiyoda yetakchilikka yaqinlashilmoxda.

Muhokama

O'nlab xalqaro reyting va indekslarning tahlili "Yangi O'zbekiston" islohotlari ijobiy natija bera boshlagani, ammo ayrim sohalarda hali ham muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

1. Iqtisodiy liberalizatsiya Doing Business va Economic Freedom indekslarida sezilarli yaxshilanishga olib keldi, biroq huquqiy barqarorlik va xususiy sektorning global raqobatishga chiqishi uchun qoidalar soddalashtirilishi lozim.

2. Ijtimoiy rivojlanish HDI ko'rsatkichlari orqali bilinar ekani, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalari hali ham jahon o'rtachasidan biroz orqada. Ushbu sohalarga qo'shimcha investitsiya zarur.

3. Innovatsiya muhitini GII orqali mustahkamlash uchun startap ekotizimi, ilmiy-texnik parklar, xususiy sektor-universitet aloqalariga ko'proq rag'bat kerak.

4. Axborot erkinligi va inson huquqlari sohasida ko'rsatkichlar ortishga boshladи, ammo Press Freedom va CPI indekslaridagi pasayish OAV erkinligi va korrupsiyaga qarshi kurashda qo'shimcha islohotlarni talab etadi.

5. Gender tengligi bo'yicha O'zbekiston WBL indeksida top-5 improver sifatida e'tirof etildi, ammo amaliyotda ushbu qonunlarni to'liq amalga oshirish muhim.

Xulosa va Takliflar, Yangi O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida amalga oshirilayotgan islohotlar xalqaro reyting va indekslarda sezilarli ijobiy ko'rsatkichlarni keltirib chiqardi. Biroq ba'zi sohalar — huquqiy barqarorlik, innovatsiya muhitini yanada rivojlantirish, matbuot va fuqarolik erkinligi, korrupsiyaga qarshi kurash — bo'yicha qo'shimcha choralar zarur.

Takliflar:

1. Huquqiy tartibotni mustahkamlash, xususiy sektor va xorijiy investitsiyalar himoyasini kuchaytirish.
2. Ta'lif va sog'liqni saqlashga byudjet investitsiyalarini oshirish, xalqaro standartlarga moslashtirish.
3. Innovatsiya ekotizimini rivojlantirish uchun soliq imtiyozlari, ilmiy grantlar, inkubatorlar tashkil etish.
4. Ombudsman institutini mustahkamlash, OAV erkinligini kafolatlovchi qonunchilikni takomillashtirish.
5. Korrupsiyaga qarshi mustaqil organlar faoliyatini demokratizatsiya qilish, shaffoflikni oshirish.
6. Gender tengligini mustahkamlash uchun amaldagi islohotlarni monitoring qilish va amaliyotga to'liq tatbiq etish.

Ushbu takliflar ijrosi Yangi O'zbekistonni jahon maydonida nafaqat yuqori reyting egasi, balki barqaror, demokratik va innovatsion jamiyat modeliga aylantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. World Bank. Doing Business 2024: Ease of Doing Business Rankings. Retrieved from Trading Economics: <https://tradingeconomics.com/uzbekistan/ease-of-doing-business>
2. United Nations Development Programme. Human Development Report 2023/24. Retrieved 15 March 2024.
3. World Intellectual Property Organization. Global Innovation Index 2024. Retrieved from <https://www.wipo.int/edocs/gii-ranking/2024/uz.pdf>
4. The Heritage Foundation. Index of Economic Freedom 2025: Uzbekistan. Retrieved from https://static.heritage.org/index/pdf/2025/2025_indexofeconomicfreedom_uzbekistan.pdf
5. Reporters Without Borders. World Press Freedom Index 2024: Uzbekistan. Retrieved from Kun.uz, May 2024.
6. Transparency International. Corruption Perceptions Index 2024: Uzbekistan. Retrieved 11 February 2025.
7. World Bank. Women, Business and the Law 2024: Uzbekistan Press Release (Top Five Improvers). Retrieved 4 March 2024.

